

MUJADDID: ISMOIL GASPRINSKIY TURKISTONLIK ZIYOLILAR NAZARIDA

Zaynabidin Abdirashidov¹

Ismoil Gasprinskiyning Turkistonga, uning turli soha va yo'nalishdagi, ayniqsa ta'lim, til, yer masalasidagi muammolarga munosabati ko'lamini uning "Tarjimon"-da e'lon qilgan o'zining yoki boshqa ziyolilarning maqola va xabarlaridan ko'rish mumkin (Abdirashidov, 2011b). O'z navbatida Gasprinskiyga Turkiston o'lkasi rus, mahalliy ma'muriyati, ziyolilari munosabati ham turlicha ko'rinishlarda aks etadi (Abdirashidov, 2011a: 83-172). Turkiston jadidlarining Ismoil Gasprinskiyga bo'lgan munosabati, uning fikr va g'oyalari nisbatan qarashlari Turkistondagi boshqa tabaqa vakillaridan keskin farq qiladi. Samarqandlik taraqqiyparvarlarning yetakchisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiydan tortib barcha Turkiston jadidlari Ismoil Gasprinskiyni o'ziga ustoz deb bildi. Ularning aksariyati Gasprinskiy bilan shaxsan ko'rishmagan bo'lsada, uning faoliyati, fikrlari bilan bevosita "Tarjimon" gazetasi orqali juda yaxshi tanish edilar. Ularning deyarli barchalari 1905 yilga qadar dunyo ahvoli, musulmonlar hayotiga oid xabarlar bilan ko'proq aynan ana shu gazeta orqali tanishdilar. Adabiyotshunos B.Karimov ta'kidiga ko'ra, "XX asr boshlarida vujudga kelgan yangi o'zbek adabiyotining bir avlodi shu gazetani o'qib ulg'aydi, fikri ochildi, millatni tanidi, erkni qo'msadi" (Karimov, 2005: 53). Ushbu kichik tadqiqotning asosiy ob'ekti sifatida turkistonlik ziyolilarning Ismoil Gasprinskiy vafotidan so'ngra unga bo'lgan munosabatlarini, uning fikrlari turkiy dunyo, umuman olganda, musulmon dunyosiga qanday ta'sir o'tkazgani haqidagi tushunchalarini 1914-yil matbuotida nashr qilingan maqola, xotira, she'rlar qamrab olindi. Shuningdek, Gasprinskiyga nisbatan islom dunyosi uchun yangi "mujaddid" yoki davr uhun "mujaddidi fikr" kabi epitetlarning qo'llanilishi hamda uning umumturkiy til borasidagi qarashlarining amaliy jihatdan Turkistonda joriy etilishi bilan bog'liq muammolar, ziyolilarning masala bilan bog'liq fikrlari va qarashlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan olib qaralganda, Gasprinskiyning Turkistondagi izdoshlari uni tom ma'noda dinni yangilovchi "mudaddid" sifatida baholashga urindilar. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, Gasprinskiy "millat" tushunchasiga ta'rif berar ekan, u diniy istilohning mazmunini biroz kengaytirdi va millat bo'lish uchun faqatgina din birligi kifoya qilmasligi, uning bilan bir qatorda til birligi ham turishi kerak degan xulosaga keldi. Bu g'oyani targ'ibi uchun esa Gasprinskiy gazeta maqolalari bilan bir qatorda adabiy asarlardan keng foydalandi. Bu jihatdan ham u turkistonlik jadidlarga o'rnak

¹ Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, abdirashidov@gmail.com

bo'ldi. Gasprinskiy asarlarining bosh qahramoni Mulla Abbos Toshkandiy – Faransaviy islohotchilik g'oyalarini ommaga etkazishda juda katta va muhim rol o'ynadi. Mazkur maqola XX asr boshlaridagi islohotchilik va yangilanish harakatining g'oyaviy jihatlarini o'rganish va bu fikrlarning ilmiy-tanqidiy tadqiqotlari uchun ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Turkiy Dunyoning “Mujaddid”I

Turkistonlik jadidlarning barchalari, qozoq ma'rifatparvarlaridan tashqari, rus maktabi tarbiyasini olmay, milliy muhitda yetishdi. Ular yangi fikrlarni Ozarbayjon, Turkiya, Eron va tatar nashriyotidan, eng ko'p, yuqorida aytilganidek, Ismoil Gasprinskiyning “Tarjimon”idan oldilar (Togan, 1942-1947: 503).

Turkistonlik jadidlarning Gasprinskiyga bo'lgan munosabati uning hayotligida hech bir manbada ochiq ko'zga tashlanmaydi. Ularning barchalari Gasprinskiy vafoti munosabati bilan nashriyotda unga nisbatan o'z munosabatlarini izhor etdilar (Abdirashidov vd, 2014). Turkistonlik ziyolilar orasida faqat shoir Kamiygina Gasprinskiy hayotligi vaqtida unga atab madhiya yozdi. Bu 1898 yili bo'lgan edi. Kamiy o'z she'rini “Tarjimon” idorasiga yuboradi va unda nashr etishni so'radi. Lekin Gasprinskiy “birodar, juda go'zal she'r bilan bizni va “*Tarjimon*”ni madh etibsiz. Tashakkur. Muhabbatnomangizni saqlaymiz, lekin gazetada nashr qilish qo'limizdan kelmaydi. Chunki agar madhga loyiq bo'lgan bo'lsak-da o'z-o'zimizni madh etadigan darajada jasoratimiz yo'q” (Ismail, 1898), deb javob berdi. Oradan 16 yil o'tib Kamiy ushbu she'rini Behbudiyning “Oyina”sida (Kamiy, 1914a) nashr qildi. Kamiy “Tarjimon”ni eng maqbul, barcha narsadan xabar beruvchi bir maktab misoli desa, noshirini tili o'tkir, fasih, aqlli kabi so'zlar bilan ta'riflaydi. Gasprinskiyning vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasida esa, unga nisbatan *haqiqatgo'y, ustodi zamon, musulmonlar tayanchi, dinu millatga pano*h kabi epitetlarni qo'llaydi (Kamiy, 1914b). Behbudiy kabi u va boshqa turkistonlik ziyolilar Gasprinskiyga nisbatan “*hazrat*” epitetini ham ishlatadilar. Gasprinskiyga nisbatan bu qadar ko'p epitetlar qo'llanilishi uning Turkiston jadidlari orasidagi ahamiyati va o'rnini qanday ekanligini ochiqroq ko'rsatadi.

Samarqandlik shoir Rojiiy Gasprinskiyga nisbatan yanada yorqinroq epitet: “*mujaddidi fikr*”, “*fikrda va dilda (tilda) muttahid*”ni ishlatadi (Rojiiy, 1914). Nemis olimasi Ingeborg Baldauf Gasprinskiyning Turkistondagi bu izdoshi qrimlik ustoziga nisbatan “*mujaddid*” atamasini balki metaforik ma'noda qo'llagan bo'lishi mumkin, degan fikrni bildiradi. Baldauf Rojiiy qo'llagan “*mujaddid*” so'zi borasida fikr qilar ekan, XX asr boshlaridagi turkistonliklar “*mujaddid*”ni asl ma'nosida tushunganligi va aynan shu tushuncha Gasprinskiy bilan uning turkistonlik izdoshlari qarashlaridagi uyg'unlik va qarama-qarshiliklarni belgilash uchun boshlang'ich nuqta bo'la olishini aytadi (Baldauf, 2003: 75).

“*Mujaddid*” atamasining lug'aviy ma'nosi biror narsani yangilovchi, eskisi o'rimga yangisini qo'yuvchi ma'nosini bersa, shar'iy istiloh bo'yicha “(asr) yangilovchisi, ya'ni Hadisga muvofiq, “*Har asrning boshida Olloh bir kishini yuboradi va uning avlodi dinning asl mohiyatini yetkazadi*” (Van Donzel, 1993: 290), deyiladi.

XIX asrning oxiriga kelib “*mujaddid*” atamasi an'anaviy shar'iy ma'noda emas, lug'aviy ma'nosida qo'llana boshlaganini kuzatish mumkin. Bu davrda “*mujaddid*”

atamasi asl diniy yangilanish emas, balki unga turtki beruvchi omillarni amalga oshiruvchilarga nisbatan ishlatildi. Bu omil musulmon davlatini va xalqini rivojlanish yo'liga burish, zamonaviy ilm-fan, sanoat, aloqa vositalarini qo'llash, bir so'z bilan aytganda, musulmon davlatida dunyoviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat edi. Gasprinskiy ham "*mujaddid*" atamasini ayni shu ma'noda Eron shohi Nasriddin²ga nisbatan qo'llaydi. Uni davr musulmon hukmdorlari orasida eng bilimdoni va ma'lumotlisi, deb hisoblaydi. Nasriddinshoh Eronda armiyani isloh qilganligi, butun mamlakat bo'ylab telegraf tarmoqlarini yaratganligi, maorif sohasida bir qancha islohotlarni amalga oshirganligi va mamlakatiga 40 yil xizmat qilib, unga yangi hayot berganligi uchun "*mujaddidi Eron*" unvoni olganligini ko'rsatib o'tadi (Tarjimon, 1889, No.20).

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Gasprinskiyning Rossiya musulmonlari ongida katta o'zgarish amalga oshira olgani hisobga olinsa, Rojiyning unga nisbatan qo'llagan "*mujaddidi fikr*" atamasini o'rinli deb aytish mumkin. Gasprinskiyga turkistonlik jadidlar orasida "*xurofotga qadam qo'ya boshlagan... islom saqlarini boshqadan isloh qilib, bir intizomga kirgizmoq uchun... oralaridagi kamchiliklarni bildirib, ...haqiqiy hayot yo'llarini*" (Hamza, 1914) ko'rsatgan shaxs sifatida qaraldi. Unga nisbatan "*din-u millatga panoh*" iborasining qo'llanilishi ham yuqoridagi fikrlarning hosili sifatida qarash mumkin. Fotih Karimiy ham Gasprinskiyning asosiy faoliyati diniy ishlarda emasligi, balki adabiy sohada bo'lganligiga urg'u beradi (Turkiston viloyatining gazetasi, 1914, No.73).

Hamza Hakimzoda Niyoziy Gasprinskiy faoliyatiga nisbatan "*intizom*" so'zini qo'llaydi. Bu esa o'z navbatida amerikalik olim Edvard Lazzarini (Lazzarini, 1992: 162) va Ingeborg Baldauf (Baldauf, 2003: 73) ning bu boradagi fikrlari va qilgan xulosalarining tasdiqi sifatida ko'rish mumkin.

Millat – Til Va Din Birligi

Gasprinskiy "*millat*" tushunchasiga o'ziga xos talqin berdi. U an'anaviy islomdagi "*millat*" (Lewis, 1988; Buhl, 1993: 61-64) ni biroz chegaralaydi va "*millatning asosini bir tillik va bir din*" tashkil etishini aytadi (Abdirashidov, 2011a: 163). Turkistonlik aksar jadidlarning qarashlarida "*millat*" – islom millatidir, har bir musulmon ana shu "*millat*"ning a'zosi (Vadud, 1924). Toshkenlik jadidlarning yo'l boshchisi bo'lgan Munavvarqori ham "*millat*" tushunchasini shu ma'noda talqin qildi. Uning milliy matbuotdagi ilk maqolalarida "*isloh*" maslasi ko'proq diniy soflikka chaqiriq sifatida qabul qilish mumkin (Abdurashidxonov, 2003: 136-142). Munavvarqori Turkiston musulmonlarining haqiqiy islomdan o'zoqlashib ketishlariga va'z va nasihat o'rniga ma'raka qidirgan "*noib-i Rasululloh*" – imomlar, Payg'ambar oxirigi nafasigacha "*millatim*", "*ummatim*" deb qayg'urishini yoddan chiqarib "*millat nima, shariat nima*" bilmagan va e'tibor bermagan mahalliy hukmdorlarni ayblaydi. Munavvarqori haqiqiy islomga zid bo'lgan "*bid'at*" ishlarni "*shar'an nojoiz ekanligini*" xalqqa bildirishi kerak bo'lgan toifani "*ulamo*" deb belgilaydi. Islomni sof holiga

2 Nosiriddinshoh (1831 – 1896) – Erondagi Qojar sulolasining 4-hukmdori. 1848 – 1896-yillar davomida mamlakatni boshqargan. Batafsil ma'lumot uchun qarang: The Encyclopaedia of Islam, New Edition, ed. C.E. Bosworth et al., vol. 7. Leiden and London, 1993, pp. 1003-1005.

qaytaradigan “*ulamo*” gina “*musulmonlarning din va dunyolariga foyda*” keltirishlarini ta’kidlaydi. Munavvarqori “*ulamo*” deganida zamon ahvolidan, siyosatidan, ilm-fanidan yaxshi xabardor bo’lgan intelligentsiyani nazarda tutadi. Munavvarqori o’zining “*ulamolarimizda hukumat yo’qki, millat devori rahmlarini isloh qilsalar*” (Abdurashidxonov, 2003: 139-142) taklifi bilan Gasprinskiyning “*diniy muxtoriyat*” i (Xabutdinov, 2002: 87) Toshkentda ham joriy etilishi vaqti yetib kelganligini kun tartibiga qo’yadi.

Gasprinskiyning turkiy xalqlar uchun yagona adabiy til, Baldauf iborasi bilan aytganda, “*murosa shevasi*” (Baldauf, 2001: 38) yaratishga bo’lgan harakati ham ayni yuqoridagi “*millat*” talqinining mahsuli, deb hisoblash mumkin. Gasprinskiyga ko’ra, “*ushbu ikki narsadan biri yo’qotilsa*” millat o’zligini yo’qotadi, inqirozga yuz tutadi (Tarjimon, 1905b, No.90). Gasprinskiyning tushunchasiga ko’ra, barcha millatlarning o’tmishi, kelajagi din va tilga asoslangan. Din birligi qanchalik muhim bo’lsa, adabiy jihatdan til birligi ham o’sha qadar muhim va taraqqiyot vositasi hisoblanadi (Tarjimon, 1905a, No.103). Gasprinskiy til birligini o’ta muhimligini ko’rsatish maqsadida, hatto uni boshqa barcha birliklarning boshi va negizi darajasiga olib chiqdi (Ismail, 1906b).

Bu jihatdan olib qaraganda turkistonliklar orasida birinchi bo’lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g’oyasini keng targ’ib qildi va quvvatladi. Behbudiy yagona til borasida fikrlar ekan, “*til birligining foydalari juda yaxshi ma’lum. Zero, til birligi do’stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosi*” degan amaliy xulosa qiladi. Mavlono Rumiyning “*Masnaviyi ma’naviy*” asaridan til to’g’risidagi baytlaridan misollar keltiradi va Gasprinskiyning bu boradagi harakatlariga Rumiyning fikrlari sharaf berishini yozdi (Behbudiy, 1906).

Gasprinskiy bilan Munavvarqori orasidagi fikriy bog’liqlikni turli sohalarda mahalliy xalqlarga ozodlik bergan 1905-yil Manifestidan keyingi Turkiston ahvoli masalasida ham kuzatish mumkin. Gasprinskiy Rossiya imperatori tarafidan 1905-yil 17-oktabrida e’lon qilgan Manifesti yuzasidan “*Tarjimon*” da musulmonlar uchun o’z takliflarini berdi. Shu bilan bir vaqtda imperiya tarkibidagi kichik millatlar ham o’z ehtiyojlarini amalga oshirish uchun harakat qilgan vaqtda Turkiston aholisining “*jonsizligi*” uni tashvishga soldi. Gasprinskiy Turkiston ahvolini tahlil qilar ekan, yerlik musulmonlarning “*harakatsiz, istaksiz, matlabsiz, jon va tovush asari chiqarmay*” turishlarining sababi “*jonsizlikdan emas, g’aflatdan, maorifsizlikdan*” degan xulosani beradi. Unga kura, Turkistonda birinchi navbatda vaqf ishlari, ta’lim va shar’iy idoralari isloh qilinishi kerak. Turkistonliklar o’lka bosib olingandan beri joriy bo’lgan “*harbiy idora*” usulining bekor qilinishini talab qilishlari kerak (Ismail, 1906a). Munavvarqori Gasprinskiyning fikrlariga hamohang tarzda xulosa qildi. Turli millat vakillari o’z milliy huquqlarini talab qilib, yurtlarining “*islohi*” uchun majlislar o’tkizayotgan vaqtda toshkentliklarni “*islohi mamlakat xususida... diniy va dunyoviy huquqlar talabida*” biror ariza bermaganliklarini tanqid qildi.

Bu xususda 1905-yil oxiri 1906-yil boshlarida toshkentliklar bir nechta majlis qilgan bo’lsalar ham oralarida kelishmovchilik sababidan biror qaror qabul qilinmagan. Munavvarqoriga ko’ra, majlisda ishtirok etganlarning har biri o’z shaxsiy manfaatlarini ko’zlagani sababidan ish yurishmagan (Abdurashidxonov, 2003: 139-142). Gasprinskiy ta’biri bilan aytganda turkistonliklar uchun “*ma’lumot kerak, maorif kerak*” edi (Ismail, 1906a).

Ma'rifatparvar "Bobo"

Turkistonlik jadidlarning deyarli barchasi Gasprinskiy bilan bevosita ko'rishmagan bo'lsada (Shermuhammadov, 1914), uning asarlari bilan juda yaxshi tanish bo'ldilar va bu asarlarning ma'nolarini to'la angladilar (Zohiriy, 1914). Mirmuhsin Shermuhammadov Gasprinskiy asarlaridan millatparvarlik, millatni davomli taraqqiy yo'lga solish fikrlarini chiqarsa, Ashurali Zohiriy uning "Russkoye musul'manstvo" broshyurasini tahlil qildi va bu Gasprinskiyning faoliyat dasturi, qiladigan ishlarining loyihasi bo'lganligiga urg'u berdi. Bu kitobning asosiy xulosalari Yevropa ilm va fikrini musulmonlar orasiga o'z maktablari va o'z tillari orqali olib kirish, natijada Rossiya musulmonlarining o'z adabiyotlarini vujudga keltirish bo'lganligini yozdi. Turkistonlik jadidlarning bu so'zlari ularning Gasprinskiy shaxsiyati va faoliyatiga qiziqishlari katta bo'lganligi va uning asarlarini muttasil o'qib borganliklarini isbotlaydi.

Yuqoridagi fikrlarning yana bir dalili sifatida Cho'lponning ilk ijodiy davrini misol qilish mumkin. Cho'lpon XX asrning 10-yillarida yosh bo'lishiga qaramay vaqtli matbuotni muntazam o'qib bordi. Ushbu gazetalar orqali Gasprinskiy, Behbudiyalar targ'ib qilgan "umumiy til"ni juda yaxshi o'zlashtirdi. Gasprinskiy Cho'lpon yozgan maktubini "Tarjimon"da berar ekan, uni o'zi yozgandan ham yaxshiroq tilda yozganligiga ishora qiladi va maktubni aynan, tilini o'zgartirmay nashr qilgani (Tarjimon, 1913, No.261) Turkistonda umumiy adabiy til keng yoyilgani va unga rag'bat kuchli bo'lgani ko'rsatadi. Cho'lpon Gasprinskiydan yangi adabiyot nima va uni odamlarga qanday tushuntirish kerakligi haqida so'raydi. Gasprinskiyning yangi adabiyot borasidagi achchiq va tushunarli javobi Cho'lpon uchun izsiz bo'lmadi. Uning 1915-yili e'lon qilgan "Adabiyot nadir?" (Cho'lpon, 1914; 1994: 35-37) maqolasi aynan Gasprinskiyning javobi ta'sirida yaratildi. Cho'lponning "adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmagan va adabiyot taraqqiysi uchun harakat qilmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo'lur" degan so'zlari Gasprinskiydan olgan "dars"i samarasi deb qarash mumkin. Cho'lpon Gasprinskiyning fikrlaridan kelib chiqib, adabiyot millatni taraqqiy ettirishning vositalaridan biri, uning ma'naviyatini ta'minlaydigan omil degan xulosa beradi. XX asrning ikkinchi o'n yilligida Turkiston matbuotida ham adabiyot, til millat uchun muhimligi haqida bir biriga mushtarak fikrlar (Sharafuddinov, 1994: 6-7) ko'rina boshlagani turkistonliklarning ham zamon jarayonlariga to'la integratsiyalashganining bir ko'rinishi deb baholash mumkin.

Cho'lpon ham boshqa jadidlar: Vasliy Samarqandiy (1914), Sadridin Ayniy (1914), Siddiqiy Ajziy (Siddiqiy, 1914b), Abdulla Avloniy (Ismoil Gasprinskiy va Turkiston, 2005: 144-145), Tavallo (1914; 1994: 42-43), Rojijiy (1914), Mulla Shamsiddinqori (Xoib, 1914), Muallim Xatoiy (1914), Mir Sarvar (1914) lar qatori Gasprinskiy vafotidan qattiq iztirobga tushdi va unga atab "Maorifparvar bobomiz muhtaram Ismoil Gasprinskiy hazratlari haqqida ta'ziyanomamiz" (Cho'lpon, 1992: 26) nomida marsiya yozdi. Gasprinskiyning "Tarjimon"i Cho'lponga nima berganligini esa u 1930-yillarda yozgan "Kecha va kunduz" nomli romani qahramoni tilidan so'zlaydi. "Tarjimon" – jadid gazetalarining otasi Ismoil boboyning gazetasi. Eng eski gazet... "Tilda, ishda, fikrda birlik!" deydi, ya'ni biz musulmonlar, turk xalqlari, bir fikrda bo'laylik, bir ish qilaylik deydi. Mundan yaxshi nima bor?.."

(Cho'lpon, 2000: 183). Cho'lpon ushbu ishlarga qo'shilgan odamlar jadid bo'lishi va nomi milliy tarix sahifalariga yozilishini ham qo'shib o'tadi. Cho'lpon Gasprinskiyning fikr va faoliyati ta'sirida bo'lganini uning yuqoridagi so'zlari tasdiqlaydi.

Gasprinskiyning adabiy asarlari ham turkistonlik izdoshlariga ayrim mavzularni yoritishda namuna vazifasini o'tadi. Siddiqiy-Ajziyning "Anjumani arvoh" va "Mir'oti ibrat" kabi asarlari Gasprinskiyning ayrim asarlari syujetlari bilan hamohangligini ko'rish mumkin. Ajziyning bu ikki asari Turkiston tsenzurasi ruxsat bermaganligi sababidan 1913-yili Tiflisdagi fors tilida nashr qilindi. Bu asarlarning ikkisi ham nazmda yozilgan.

"Anjumani arvoh" syujet jihatidan Gasprinskiyning "Mukolmai salotin" (Sayyah, 1906, 1907) hikoyasiga yaqinroq turadi. Ikkala asarda ham o'tmishdagi hukumdorlar bir yerga yig'ilib majlis o'tkazadi va zamon ahvoli muhokama qilinadi. Ajziyning bu asarini o'qiganlar o'sha vaqtda kofirlikda ham ayblandi (Mahmudxo'ja, 1914). Ajziy o'zini himoya qilish maqsadida xalqning va uni takfir qilganlarni nodonlikda aybladi (Siddiqiy, 1914a).³ "Mir'oti ibrat" dostonida esa Gasprinskiyning "Doru-r-Rohat musulmonlari" (Gasprinskiy, 2013) romanidagi kelajak musulmon davlati qanday bo'lishi va texnik taraqqiyot haqidagi qarashlarining sadosini ko'rish mumkin.

Turkistonlik jadidlar tarafidan Gasprinskiyning asarlari ham tarjima qilindi. Uning "Doru-r-Rohat musulmonlari" romanini Abdurauf Fitrat 1915-yili fors tiliga tarjima qilib nashr etdi (Ayniy, 1926: 543; G'asparinskiy, 2002).

Mulla Abbas – Yangi Davr Musulmoni

Qrimtatar ma'rifatchisi, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Ismoil Gasprinskiyning adabiy asarlari jamoatga hali u qadar yaxshi tanish emas. U g'oya va fikr odami bo'libgina qolmay, ayni zamonda roman va hikoyachi, adabiyotning nazariy muammolari va tanqidchilik sohasida ham samarali faoliyat olib borgan adabiyotchi hamdir.⁴

Gasprinskiy "Tarjimon" gazetasidagi faoliyati davomida bir qancha adabiy taxalluslardan foydalandi. U eng ko'p foydalangan taxalluslaridan biri Mulla Abbas Faransaviydir. Gasprinskiy ushbu imzo ostida bir qator roman va hikoyalarni e'lon qildi. Ular: "Farangiston maktublari", "Doru-r-Rohat musulmonlari", "Sudan maktublari", "Xotinlar o'lkasi", "Mulla Abbas ila tasodif uchrashuv – Gul Bobo ziyorati" va boshqalar.

Gasprinskiy adabiy asarlarining bosh qahramoni toshkentlik Mulla Abbas ismli bir yigit. Sayohatga chiqmasidan oldin 22 yoshda bo'lgan Mulla Abbas otasi vafotidan keyin merosxo'r sifatida katta boylikka ega bo'ldi. U otasidan ayrilib, bu dun-

3 Ajziyning she'ri boshida "Oyina" idorasi tarafidan ushbu yozilgan: "Nozimi risolai "Anjumani arvoh" janob Sayyid Ahmadxo'ja Siddiqiy ro ba'zi kason binobar "kofir" guftan. Dar javob in abyot dar idora fristonand" ("Anjumani arvoh" muallifi Sayyid Ahmadxo'ja Siddiqiy ba'zi kimsalar tarafidan "kofir" deyildi. Javob tariqasida ushbu baytlarni idoramizga yo'lladi.)

4 Ismoil Gasprinskiyning adabiy tanqidga oid turkum maqolalari professor Yavuz Akpınar tomonidan jamlanib, birinchi marta 1988-yili (Turk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, IX. c., İzmir, 1988, s. 87-115) e'lon qilingan. 2001-yili esa Ismoil Gasprinskiy ijodi va faoliyatiga bag'ishlangan internetdagi saytda www.ismailgaspırali.org qayta e'lon qilindi.

yoda yolg'iz qolganidan so'ng, dunyo kezib, sayohat qilish fikriga keldi. U Toshkent madrasalaridan birida diniy tahsil ko'rgan. Dunyoviy ilmlardan bexabar. Muqaddas joylarni ziyorat qilish niyatida yo'lga chiqqan Mulla Abbos safar davomida u yoq, bu yoqdan eshitib, Yevropaga ishq tushadi.

Balki, I. Gasprinskiy asarning badiiy tilsimi, romantizmi, ekzotikasi va sharq koloritini yaxshiroq ifoda etish, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini yanada chuqurroq jalb etish maqsadida bosh qahramon nomidan hikoya qilgan muallifni toshkentlik qilib, bundan kelib chiqib uning ismini Mulla Abbos qo'ygandir. "Tarjimon"ning ilk o'quvchilari va hatto gazeta chiqarmoq masalasida "dajjollik" qilib, to'sqinlik qilgan kimsalar ham "Tarjimon"ning har sonida bosilgan roman parchalarini maroq bilan o'qib, gazetaning kelgusi sonini zo'r ishtiyoq bilan kutganliklarini kuzatish mumkin. Masalan, 1893-yili I. Gasprinskiyga Qozon shahridan kelgan bir maktubda ushbu satrlar bor: *"Hurmatli muharrir afandi. Mulla Abbos ismli xodimingiz qayerda, sog'-salomatmi? Yana maktublarini davom ettiradimi? Uning maktublari, gazetani kufr deb o'qimagan kishilarnida o'quvchilarga aylantirmoqda. Mulla Abbos ularning ko'r ko'zlarini ochmoqda. Biz bundan juda ham xursandmiz"*. Toshkentdan yuborilgan maktubda esa, Mulla Abbos darhaqiqat Toshkentdanmi? Shaharning qaysi qismidan?, degan savol berilgan. "Tarjimon" tahririyati ushbu savolga javob berar ekan, Mulla Abbos Toshkentdan ekanligini tasdiqlaydi va u haqda boshqa ma'lumotga ega emasliklari, oxirigi maktubini Marv shahridan yuborgani va xatida unutilgan odamlar mamlakatiga yo'l olganini bildirgani, tahririyat esa bu mamlakat qayerda joylashgani borasida ma'lumoti yo'q ekanligi haqida bilgi beradi (Baxtiyarov, 1894). Bu xabardan ko'rinadiki, Gasprinskiy Mulla Abbos sarguzashtlarining davomini, ya'ni uning noma'lum bir mamlakatga safari haqida yozishni rejalashtirgan.

Asarning syujeti davomida Mulla Abbos bir qancha mamlakatlarga sayoxat qiladi, ko'p narsalarni ko'radi, o'rganadi. Lekin har yerda, har vaqt ilm va madaniyat taraqqiyoti, islom dini, uning tarixi, o'tmishi va kelajagi to'g'risida qayg'uradi.

Ispaniyaga kelgandan keyin, Mulla Abbos Andaluziya viloyatini ziyorat qila boshlaydi. Arab xalifaligi zamonlaridan qolgan yodgorliklar bilan tanishadi. Grenada shahrining eng qadimiy saroylaridan biri, muhtasham va go'zal al-Xamroni bir oy davomida tomosha qiladi. Shu vaqt davomida Parijda tanishib qolgan Shayx Jalol yordamida Rohat nomli mo'jizaviy, sirli bir o'lkaga borib qoladi. Bu o'lka madaniyati, ilm va hunari aqlga sig'mas darajada butun dunyo mamlakatlaridan ilgarilab ketgan edi. Mulla Abbos ko'rgan narsalaridan xayratga tushadi.

Rohat o'lkasi. Unchalik katta bo'lmagan, mo'jizagina bu o'lkada har taraflama tartib va nizom, osoyishtalik va go'zallik, aholisi esa yuksak madaniyat sohibi bo'lganligi Abbosning birdan ko'ziga tashlanadi. O'lkaning qayeriga bormasin, barcha ko'rgan narsalari yangilik, mo'jiza.

Muallif, qadimda bo'lib kechgan voqealarni asos qilib olib, o'quvchini asta sekin badiiy xayolot dunyosiga yetaklab kiradi. Bu usul bilan o'zining dunyoqarashi doirasida mantiqli bir shaklda kelajak bilan bog'lab, ijtimoiyot ummoni qanday irmoqlardan boshlanib kuchga kirishini ko'rsatib berishga harakat qiladi.

"Dor-ur-Rohat musulmonlari" asarining xalq orasida keng tarqalganligi sabablari, unda inson zoti yaratgan buyuk madaniyat va ilmni o'rganishga bo'lgan intilish,

amallar, sog'lom tushunchalar asosida inkishof qilishi mumkin bo'lgan jihatlarining ustunligi bo'lsa kerak. Gasprinskiy barcha ishlarida ana shu jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishga intilgan. Hatto bir vaqtda "Tarjimon" gazetasida inson ruhi va sərbast iroda haqida kitob yozish konkursini e'lon qilib, unda quyidagilarni yozgan edi:

"Islom dini mehnatni, harakatni, muqoyitlikni va inson irodasining ana shu sərbastliklarini tavsiya va taqdir etishligidan, musulmon ummati o'zlarining hayotlarida katta bir voqealarni kechirmoqdalar. Bu holatni ko'rib turib, gazetamizning 1899-yilgi 48-sonida musulmon ulamolariga ushbu masalaga bag'ishlangan, ya'ni islom dini bo'yicha mehnatning lozimligi, tashabbuskorlik va inson irodasining sərbastlik darajasini ko'rsata oladigan asar yozishliklari va yozilgan asarlar ichida birinchi o'rinni olgan asar muallifiga 100 kumush mukofot va'da qilgan edik. Bizning ushbu da'vatimizga to'rt ulamomiz o'z e'tiborlarini qaratib, o'zlarining asarlarini bizga yubordilar. Ularning barchalariga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz. Mazkur yuborilgan asarlar ichida eng ahamiyatlisi Vyatka guberniyasi Sarapul uyezdidan mudarris Abdulla afandi Nigmatullinni yozgan "Tashih" nomli asaridir. U kishiga va'da qilgan 100 kumushni yuborib, asarning qo'lyozmasini bosmaxonaga topshirdik. Kitobcha chop etilgandan keyin barcha o'quvchilarimizga tarqatiladi. Ushbu kitobcha ummatimizning taqdiriga bo'yin egish masalasida fikrlarini tashih etsa, o'zimizni baxtiyor his qilgan bo'lamiz." (Tarjimon, 1900, № 48)

Qur'oni karimni minglarcha nusxada nashr qilgan Gasprinskiy, albatta, oyati karimalarning haqiqiy ma'nolarini ochib berishga, tushuntirishga ham harakat qilgan edi. O'zining kuchi yetmagan joylarida ilm sohiblarini yordamga chaqiradi.

Gasprinskiy adabiy asarlarini ko'p olimlar va adabiyotshunoslar turlicha talqin qilsalar-da, tadqiqotchilarning aksariyati tomonidan ikki xil fikr e'tirof etiladi. Birinchisi, romanda Sharq va G'arb madaniyatlari qiyos etilib, Sharq madaniyati G'arb madaniyatidan ustun ekanligi dalillanadi. Ikkinchisi, Qur'oni karimning asosiy tushunchalari G'arb tomonidan ma'qullanib, qo'llangani uchun ham ular ilmiy va madaniy yuksakliklarga erishgani tasvirlanadi. Shundan kelib chiqqan holda Gasprinskiyning romanda aks etgan fikrlaridan shunday xulosalar chiqarish mumkin: musulmonlar o'zlarini qayta inkishof qilmog'i uchun asl qadriyatlarini anglamog'i hamda insoniyat yaratgan butun madaniy va ilmiy yutuqlarni inkor etmagan holda ulardan yetarli darajada foydalanmoqliklari kerak.

Asar qahramoni Mulla Abbos madrasada diniy ta'lim olganiga qaramay, mutaassib emas, aksincha yangilikka moyilroq, uni tez qabul qiladiganlardan. Lekin o'zligini unutmaydi, e'tiqodi mustahkam. Qayerda bo'lmasin fikrlash usuli va harakatlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Eng avvalo, uning haqiqatgo'yiligi, izlanuvchanligi, barcha narsaga qiziqishi, tabiatidagi sabr, matonat va ko'zlagan maqsadiga yetishdagi qat'iyat, tirishqoqlik asarda ishonarli tasvirlangan. Mulla Abbos yosh bo'lishiga qaramay, dunyoqarashi, fikrlari anchagina shakllanib bo'lgan, bilimli va tajribali bir insondir. Eng asosiysi, u ishdan qo'rqmaydigan, hayotning nogahoniy zarbalariga dosh bera oladigan, g'oyasi uchun jon berishga ham tayyor turgan bir yigit timsolidir. Shu sababdan ham u Sudan kabi uzoq bir musulmon mamlakati ozodlik kurashida ishtirok etish maqsadida u tomon yo'l oldi. Sevgilisi Margaritaning sha'nini saqlab qolish uchun o'lim jazosiga ham rozi bo'ladi. Sirli Rohat o'lkasidan chiqa olmasligi ma'lum bo'lgach esa, vatanparvar Abbos ona yurti Turkistonga qaytmoq uchun butun kuch-quvvati va irodasini to'plab, maqsadiga erishdi.

Yana shuni ham qayd etmoq kerakki, Mulla Abbos millatchilikni qabul qilmaydi, o'zida singdira olmaydi. U islom dini tarixini o'rganib, ilm va madaniyat inkishofini yolg'iz din bilan bog'laydi. Chunki insonning qalbi sof va iymoni kuchli bo'lsa, har jabhada insoniyatga foyda keltiradigan darajaga erishishi mumkin. Mulla Abbosning butun fikrlari uning ana shunday harakatlari tahlilidan kelib chiqadi.

Adabiyotdagi makon ko'chirish usulidan mahorat bilan foydalangan Gasprinskiy Yevropada, Andaluz xalifaligida bo'lib o'tgan voqealar orqali musulmon olami ahvoli, bosqinchilar siyosatlarini fosh qilishga harakat qiladi. Prof. Ingeborg Baldauf "Doru-r-Rohat musulmonlari" asarini tahlil qilar ekan, Gasprinskiy tasvirlagan sirli o'lkani "*utopik ideal yurt, geografik xaritadan tashqarida, ajralgan, barchaga noma'lum bir makonda joylashgan*" deydi. U o'z tahlilida davom etib, nima uchun muallif bunday yo'l tutganligini quyidagicha sharhlaydi: "*Asar qahramoni u yerga o'z ixtiyorisiz borib qoladi. Kema halokati tufayli ba'zida asar qahramonlari noma'lum xayoliy orolga tushib qolishlari ham mumkin. Biz bu kabi rivoyatlarni hali dunyo yaxshi tadqiq etilmagan, shunday orollar borligiga odamlarni bemalol ishontirish mumkin bo'lgan davrlardan bilamiz. Ammo XIX asr oxiriga kelib jahon xaritasida oq dog'lar deyarli ko'rinmay qoldi. Aynan shu holat Gasprinskiyning biror-bir noma'lum geografik orolni emas, balki bir utopik makon tanlab, uni real dunyodan tashqarida ekanligini boshqa bir vosita, ya'ni uyqu orqali tasvirlashiga sabab bo'lgan. Mulla Abbosning o'ngimi-tushimi ekanligi noaniq – axir u Al-Xamroda uxlab qolgan edi. Tush esa utopiyaning sevimli adabiy libosi.*" (Baldauf, 2012: 113-114)

Mulla Abbos siymosi tafsilotli, maroqli va nozik suratda ishlanganini qayd etmoq kerak. Muallif uni tasvirlashda bosh qahramonga xos bo'lgan bir qator tabiiy chizgilar orqali uni turli holatlarga solib, ziyoli insonga xos xarakter nuqtalarini yanada oydinlashtirib beradi.

Xulosa

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ichki Rossiya, qo'shni Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlarda ancha rivoj topgan va ma'lum ma'noda g'oyaviy zaminiga ega bo'lgan islohotchilik harakati XX asr boshlarida Turkistonga kirib keldi. Bu jihatdan turkistonlik jadidlarning ma'naviy rahnamosi, yo'lbo'shchisi hamda "panohi" sifatida yaqqol Ismoil Gasprinskiy ko'zga tashlanadi. Uning "Tarjimon"i Turkistonda o'zini ziyoli hisoblagan barchaga ham fikr, ham amaliy yo'riqnomama vazifasini bajardi. Uning o'zi esa turkistonlik izdoshlar nazdida har asr boshida Alloh tomonidan dinni yangilash, unga toza jon bag'ishlash maqsadida yuboradigan "mujaddid"i, musulmonlarning "panohi", ziyolilarning "qiblagohi" sifatida qaralgani Gasprinskiyning o'z davri uchun yirik fenomen bo'lganidan dalolat bergan, degan xulosa chiqarishga asos bo'la oladi.

Gasprinskiyning "millat" tushunchasi tagzaminida din birligi bilan bir qatorda til birligi ham turadi. Bu esa, o'z navbatida, diniy istiloh mazmunining torayishiga va ma'lum bir hududda istiqomat quluvchi xalq va elatlarni bir millat deb qabul qilinishi kerakligini ifodalaydi. Gasprinskiy bu g'oyasi bilan katta hududda istiqomat qiladigan turkiy xalq va elatlarni umumturkiy o'tra til bilan birlashtirishni nazarda tutgan edi. O'z vaqtida Gasprinskiyning "murosa tili" Turkistonda keng yoyildi va ziyolilar

tomonidan muntazam qo'llanildi. Hatto 1930-yillar adabiyotida ham til birligi, ish birligi g'oyasi batamom yo'qolmadi. Buning yorqin misoli sifatida Cho'lpon ijodini ko'rsatish mumkin.

Ismoil Gasprinskiyning vafoti o'sha davr xoh rus, xoh mahalliy amaldor, ziyolining unga bo'lgan haqiqiy munisabatini ko'rsatib berdi. Turkistonlik ziyolilar o'z munosabatlarini xotira, tahliliy maqola, marsiya va boshqa yozuvlar orqali ifoda qilishga harakat qildilar. Turkistonliklarning Gasprinskiyga bo'lgan qarashlarini tom ma'noda jadidona deb aytish mumkin. Ularning fikrlarida bir narsa yaqqol ko'zga tashlanadi: Gasprinskiy – millat ustodi; til va amalda muttahid, ya'ni so'zi bilan ishi bir; millat yo'l boshchisi. Bu sifatlarni yana davom ettirish mumkin. Bir so'z, ya'ni Behbudiy tili bilan aytadigan bo'lsak – “ustoz muazzam”. Gasprinskiyning bu ustodligini ham diniy, ham dunyoviy ishlarning islohotida ko'rish mumkin.

Ismoil Gasprinskiyning ustodligini ko'rsatuvchi yana bir katta omil – bu uning badiiy asarlaridir. Uning asarlari haqida gap ketganda shuni qayd etmoq kerakki, uning qahramoni, jadid timsoli bo'lmish Mulla Abbos islom dini tarixini o'rganib uni dunyoviy bilimlar bilan mustahkamlaydi, jamiyat taraqqiyotini diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligida ko'radi.

Mulla Abbos o'z zamonasining eng dolzarb muammolari: davlatchilik, shra'iy sud, ayollar masalasi, diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham tahsil qilish, musiqa, teatr va boshqalarni o'quvchi oldiga qo'yadi va ularni tahlilga tortadi, oxir-oqibatda yechimini ham topadi. Mulla Abbos xotin-qizlarning haq-huquqlarini zamonaviy bir holda qabul qiladi. Lekin u vaqtda islom dunyosidagi xotin-qizlarning ahvolini ko'z oldimizga keltirsak, albatta, u tavsif etgan musulmon ayolining obrazi o'z davri uchun juda ilg'or edi. Gasprinskiyning “Doru-r-Rohat musulmonlari” asari o'zining mazmun-mohiyati bilan XX asr boshlarida rivoj olgan jadidchilik harakatining tub negizini ochib beradi. Ma'rifatparvarlarning diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni egallashga chaqiriqlari ushbu asrning asosiy g'oyasini tashkil etish bilan bir qatorda turli hayotiy voqea, ichki kechinma va xayoliy tasavvurlar orqali ushbu chaqiriqni yanada yorqinroq aks ettiradi. Mulla Abbos siymosida johillik bilan ilm, ma'rifat bilan jaholat kurashi va bu kurashda aql doim g'olib keladi.

Kaynaklar

- Abdirashidov Zaynabidin. Annotirovannaya bibliografiya turkestanskix materialov v gazete “Tarjuman” (1883-1917). Central Eurasian Research Series No.5. TIAS: Department of Islamic Area Studies, Center for Evolving Humanities, Graduate School of Humanities and Sociology, The University of Tokyo, Tokyo, 2011.
- Abdirashidov Zaynabidin. Ismail Gasprinskiy i Turkestan v nachale XX veka: svyazi-otnosheniya-vliyanie. Toshkent: Akademnashr, 2011.
- Abdrashidov Zaynabidin, Karimov Bahodir. va Egamqulova Nodira. Исмоил Гаспринскийни эслаганда... Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.
- Abdurashidxonov Munavvarqori. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmedov. Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
- Andijondan o'lan savola javob. // Tarjimon, 1913, No.261.
- Avloniy Abdulla. Adibi shahir Ismoilbek ruhina. – Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. Toshkent: Sharq. 2005, 144-145-betlar.

- Ayniy Sadridin. Buyuk bobomizning musibatila parishon o'lan xotirdan bir necha parishon she'rlar // *Sadoyi Turkiston*, 1914, No.42.
- Ayniy Sadridin. Namunai adabiyoti tojik. Moskva, 1926.
- Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World. // *Die Welt des Islams, New Ser.*, Vol. 41, Issue 1, 2003. pp. 72-88.
- Baldauf Ingeborg. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
- Baldauf Ingeborg. Zamon va makon bo'ylab sayohat: Jadidchilik utopiyasi haqida o'ylar. – "So'nggi jadid" qissasi. Toshkent, 2012. –B.112-121.
- Baxtiyarov Sa'diddin. Tashkandan maktub (Tarjumana maxsus) // *Tarjimon*, 1894, No.18
- Behbudiy Mahmudxo'ja. Vahdati lison – dil birligi // *Tarjimon*, 1906, No.61.
- Buhl Fr. Millet. In *The Encyclopaedia of Islam, New Edition*, ed. C.E. Bosworth et al., vol. 7. Leiden and London, 1993. pp. 61-64.
- Cho'lpon. Adabiyot nadir. (Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho'lpon haqida xotiralar.) To'plovchi va izoh mualliflari: D.Quronov, Z.Eshonova, U.Sultonov. Toshkent: Cho'lpon, 1994, 35-37-betlar.
- Cho'lpon. Adabiyot nadir? // *Sadoyi Turkiston*, 1914, No.15.
- Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. I jild. Toshkent, 1992.
- Cho'lpon. Kecha va kunduz. Birinchi kitob. Kecha. Toshkent: Sharq, 2000.
- Dil, dil, dil // *Tarjimon*, 1905a, No.103.
- Gasprinskiy Ismoil. Farog'at o'lkasi. Toshkent: , 1906.
- G'asparinskiy Ismoilbeki. Musalmononi Dorurrohat. Dushanbe: Dilovar – DDMT, 2002.
- Hadiyali risala // *Tarjimon*, 1900, № 48.
- Hamza. Yavmul vafot // *Sadoyi Farg'ona*, 1914, No.64.
- Ismoil. Rusiya Turkistoni // *Tarjimon*, 1906a, No.37.
- Ismoil. Toshkandli shoir "Kamii"ya (idoradan javob) // *Tarjimon*, 1898, No.41.
- Ismoil. Umumiy lisoni adab // *Tarjimon*, 1906b, No.37.
- Ismoilbek G'asprinskiyning vafoti // *Turkiston viloyatining gazet*i, 1914, No.73.
- Kamiy. Haqoyiq ogoh, maorif dastgoh, ustodi zamon, sohibi "Tarjumon" janobi Ismoilbek hazratlarining ruhi purfutuhlarina ittihof // *Sadoyi Turkiston*, 1914, No.43.
- Kamiy. Mo'xtabar "Tarjimon" va Ismoilbek G'asprinskiy janoblari haqqinda // *Oyina*, 1914, No.17.
- Karimov B. Ismoil Gasprinskiy va Cho'lpon. – Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. Toshkent: Sharq, 2005. –B.53-58.
- Lazzerini Edward J. Beyond Renewal. The Jadid Response to Pressure for Change in the Modern Age. In Jo-Ann Gross (ed.), *Muslims in Central Asia. Expressions of Identity and Change*. Durham/London: Duke University Press, 1992, pp. 151-166.
- Lewis Bernard. *The political language of Islam*. Chicago/London, 1988
- Lison masalasi // *Tarjimon*, 1905b, No.90.
- Mahmudxo'ja. Bizni hollar va ishlar // *Oyina*, 1914, No.13.
- Mir Sarvar. Ta'rixi irtiholi Mirzo Ismoilbek G'asprinskiy // *Oyina*, 1914, No.6.
- Muallim Xatoiy. Ismoilbek hazratlari yodig'a // *Oyina*, ikkinchi yil, 1914, No.3.
- Mujaddid-i Eron // *Tarjimon*, 1889, No.20.
- Pek muhim maktub. *Tarjimon*, 1906, No.51
- Rojiy Faxriddin. Ismoilbek hazratlarig'a // *Oyina*, 1914, No.49.
- Sayyoh. Mukolama-i salotin // *Tarcüman*, 1906, No.144, 145; 1907, No.3, 7.

- Sharafuddinov Ozod. "Adabiyot yashasa – millat yashar...". – Cho'lpon. Adabiyot nadir. (Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho'lpon haqida xotiralar.) To'plovchi va izoh mualliflari: D.Quronov, Z.Eshonova, U.Sultonov. Toshkent: Cho'lpon, 1994. –B.2-11.
- Shermuhhammadov Mirmuhsin. Inna lillahi va inna ilayhi roji'un // Turkiston viloyatining gazetasi, 1914, No.75.
- Siddiqiy Sayyid Ahmadxo'ja. Muqobala // Oyina, 1914a, No.16.
- Siddiqiy. Ismoilbek hazratlari yodig'a // Oyina, 1914b, No.51.
- Tavallo. Marsiya-i ustod Ismoilbek janoblari // Sadoyi Turkiston, 1914, No.42
- Tavallo. Ravnaq ul-islom. Toshkent: Fan, 1993.
- Togan A. Zeki Velidî. Bugünkü türkili (Türkistan) ve yakın tarihi. Cilt I. Istanbul, 1942-1947.
- Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy // Inqilob, 1924, No.11, 12.
- Van Donzel E. Mudjaddid. In The Encyclopaedia of Islam, New Edition, ed. C.E. Bosworth et al., vol. 7. Leiden and London, 1993. p. 290.
- Vasliy. Ta'rixi rihlati janobi Mirzo Ismoilbek sohibi jaridai "Tarjumon" rohmatallohi rohmatan vasi'atan va adxalahu-l-jinan. // Oyina, 1914, No.52.
- Xabutdinov A. Tatarskoye obshchestvennoe dvijenie v rossiyskom soobshchestve (konets XVIII – nachalo XX veka). Dis... dokt. ist. nauk. – Kazan, 2002.
- Xoib Shamsiddinqori. Marhum fozil-i nuqtadon va fardu-l-zamon noshiri Tarjumoni ahvoli zamon Ismoilbek G'asprinskiy janoblarining ta'rix soli favtlari // Turkiston viloyatining gazetasi, 1914, No.80.
- Zahiriyy 'Ashur'ali. Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgan edi? // Sadoyi Farg'ona, 1914, No.60.